



## NUTQIY ETIKET BUZILISHINING DAVR, ZAMON VA IJTIMOIIY QATLAM BILAN BOG'LIQ TOMONLARI

**Qo'ldashev Nizomiddin Ahmadaliyevich**

Ph.D Farg'ona davlat universiteti dotsenti, filologiya  
fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Qayumova Munavvar Alisher qizi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17371413>

**Annotatsiya:** ushbu maqolada nutqning sofligiga, mahalliy dialekt va shevalarga xos so'z, ibora, shuningdek, grammatik shakllar, so'z va so'z birikmalarining talaffuzi, o'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari, jargonlar, vulgarizmlar, nutqda ortiqcha takrorlanadigan "parazit" so'zlar, kanselyarizmlarning ta'sir qilishi, ushbu so'zlardan o'rinsiz foydalanish so'zlashuv nutqini ham, badiiy nutqni ham xiralashtirishi, bugungi kunda o'zbek tili sofligiga alohida e'tibor qaratilayotgan bo'lishiga qaramay, hamon muloqot etiketiga zid bo'lgan so'z va iboralarning, noo'rin so'zshakllarning qo'llanishi davom etayotgani, bu esa nutqiy etiket milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida jamoatchilik nazoratini ham talab qilishini ko'rsatishi, tilni sof saqlash, so'zlardan o'rinli foydalanish haqida gapirishdan oldin bularning barchasi aslida qay holatda bo'lishi kerakligiga e'tibor qaratish zarurligi, tildagi me'yoriylik ekolingvistikaning asosiy oltin qoidasi sifatida o'zbek tiliga ham taalluqli ekanligi kabi masalalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** nutqiy etiket, varvarizm, nutqiy etiket, sun'iy o'zlashtirish, nutq sofligi.

Tabiat va jamiyatda ekologik muammolarning vujudga kelishi natijasida tabiatni va jamiyatni asrash, olamni qutqarish degan tushunchalar paydo bo'la boshladi. Ushbu tushunchalar tilshunoslik sohasiga ham kirib, ekolingvistika yo'nalishining shakllanishiga turtki bo'ldi. Rus tilshunosi G.Ya.Solganikning fikricha, tildagi antroposentrizm, muloqot jarayonida vulgar so'zlar, jargon va argolardan foydalanish me'yorlari, tilning ahloqiy-madaniy omillarini tadqiq etish bilan sosiolingvistikaning tarkibiy qismi bo'lgan ekolingvistika ham shug'ullanishi lozim<sup>1</sup>.

Til va nutq sofligini saqlash haqida gap ketganda, eng avvalo, hozirgi ba'zi yoshlar ko'p qo'llaydigan so'z va iboralar, ya'ni varvar so'zlar haqida fikr bildirish zarur. "Varvarizmlar yunoncha barbarismos so'zidan olingan bo'lib, "kelgindi" degan ma'noni bildiradi. Varvarizmlar tilga o'zlashmagan, uning me'yorlariga xos bo'lmagan, o'zga til hodisasi sifatida qo'llanadigan so'z va iboralardir"<sup>2</sup>. Shuningdek, Shimoliy Afrikada yashovchi Rim imperiyasiga bo'ysunmagan qabilalarga nisbatan ham "varvar" atamasi ishlatilgan. Hozirgi kunda tilshunoslik sohasiga bu so'z "varvarizm" shaklida kirib kelgan bo'lib, ona tiliga o'zlashmagan, yot, begona, o'zlashgan bo'lsa ham, tilning buzilishiga olib kelgan o'zlashmalarga nisbatan ishlatiladi. Tarixiy natijasida tilimizga forscha va arabcha varvarizmlar turli davrlarda, turli sabablarga ko'ra kirib kelgan. Hozirda ko'proq rus va ingliz tilidan kirib kelgan varvarizmlarni uchratishimiz mumkin.

Varvarizmlar so'zlashuv uslubiga xos leksik unsur bo'lib, tilning adabiy me'yorini buzadi va uning asosiy lug'at tarkibiga kirmaydi. Varvar so'zlardan ba'zan badiiy adabiyotda mahalliy muhitni berishda, obrazlarni xoslashtirishda foydalaniladi. Masalan, varvarizmlar pulning ("ko'kidan" bormi – dollar bormi), lavozim va shaxsning ("mer", "shef", "bos", "baron" va hakoza tarzda) ifodalanishini anglatadi, shuningdek, mazax qilishda foydalaniladi<sup>3</sup>. O'zbek tili davlat tili

<sup>1</sup> Солганик Г.Я. О новых аспектах изучения социолингвистики // Вестник Московского университета. Серия 10. Журналистика. – Москва, 2000. – № 3.

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 1-жилд. – Тошкент, 2006. – Б. 441.

<sup>3</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2001.

maqomini olgach, turli tillardan, ayniqsa, rus tilidan kirgan varvarizmlardan (“madam”, “bratan”, “zemlyak”, “paxan”, “dedulya” va b.) o‘zbek so‘zlashuv tili faol tozalana boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21 oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni davlat tiliga bo‘lgan e‘tiborni yanada kuchaytirdi. Farmonning 4-bandida “davlat tili sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish” borasidagi vazifalar aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lishiga qaramay, bugungi kunda yoshlar nutqida nafaqat o‘zbek tilini, balki boshqa tillarni ham buzib qo‘llash holatlari avj olib ketdi. Bu, o‘z navbatida, o‘zbek tili nufuziga katta salbiy ta‘sir o‘tkazmoqda.

Quyida ularning ayrimlarini tahlilga tortamiz: “vaapshe” – rus tilidagi “voobshye” so‘zidan kelib chiqqan, “umuman” degan ma‘noda ishlatiladi; “karochoi” – rus tilidagi “koroche” so‘zidan kelib chiqqan, “qisqasi” degan ma‘noda; “dalban” – rus tilidagi “dolban, dolbit” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “boshi qattiq urilgan, ahmoq” degan ma‘noda; “trezi” yoki “trezvi” – rus tilidagi “trezviy” so‘zidan kelib chiqqan, “mast emas, hushyor, tetik” degan ma‘noda qo‘llanadi; “dubil” – asli fransuzcha so‘z bo‘lib, rus tilidagi “debil” so‘zidan kelib chiqqan, “aqli past, kaltafahm” degan ma‘noda ishlatiladi, tibbiyotda kasallik turi hisoblanadi; “tormiz” – rus tilidagi “tormoz” so‘zidan kelib chiqqan, “to‘xtatish moslamasiga o‘xshab qotgan, sust harakat qiladigan, ahmoq” degan ma‘noda; “davay, davay” – rus tilidagi “davay” so‘zidan kelib chiqqan, “tez-tez bo‘l, bo‘l” degan ma‘noda; “ragatka” – rus tilidagi “rogatka” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “ko‘p gapiradigan odam” ma‘nosida; “mayda rezba” ifodasi esa bir gapni qayta-qayta takrorlayveradigan insonga nisbatan ishlatiladi.

Boshqalari esa allaqachon adabiy til doirasiga kiritilgan yoki kiritilish harakatida. Rasmiy adabiy tilga kirib kelayotgan yoki olib kirishga harakat qilayotgan “burger”, “bomba-burger”, “burgers”, “lavash”, “shaurma”, “xinkali” (monti), “gamburger”, “doubli burger”, “chizburger”, “kombo”, “chxanbili”, “xot dog”, “kapuchino”, “morojenoye”, “kokteyl”, “sok”, “pirojnyye” kabi boshqa tilga xos varvar so‘zlar ham keng tarqalmoqda. “Evos”, “Stek xaus” “Burger xaus” deb nomlangan ushbu taomlarni tayyorlaydigan joylar ham ommalashib borayotganligi ayanchli holat.

“Hashar week” (hashar veyek) o‘zbek tilidagi “hashar” va ingliz tilidagi “week” hafta, yettilik so‘zidan kelib chiqqan. Ushbu so‘z birikmasini hozirda ommaviy axborot vositalari orqali o‘tkazilayotgan hashar tadbirlariga nisbatan qo‘llash holatlari uchramoqda.

“City” – ingliz tilidagi “shahar, kent” so‘zidan kelib chiqqan, asosan, inglizabon xalqlar turli biznes markazlari joylashgan hudud yoki, umuman, shaharlarga nisbatan qo‘llaydi. Bizda ushbu so‘zni keng qo‘llash shaharlarimiz markazlarida qurilayotgan zamonaviy binolar joylashgan hududlarga nisbatan bo‘lib, o‘sha shahar nomi bilan qo‘sha holda aytilmoqda va yozilmoqda.

“Bulling” – so‘zi ingliz tilida maktablarda bolalar orasida uchraydigan zo‘ravonlik holatlariga nisbatan qo‘llandi. O‘zbek tilida buni “buqalik – zo‘ravonlik qilish” deb atash mumkin, ya‘ni o‘zidan jismonan zaif kimsani ta‘qib qilish, tazyiq o‘tkazish demak.

“Shelter” – ingliz tilidagi “shelter” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “boshpana” degan ma‘noda ishlatiladi. O‘zbek tilida mehmonxona turidagi ba‘zi binolar va joylarga nisbatan ishlatilish holatlari kuzatilmoqda.

“Klining” – ingliz tilidagi cleaning so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “tozalash” degan ma‘noni anglatadi va hozirda kimyoviy tozalash joylariga nisbatan ishlatiladi.

Til, albatta, boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar bilan doimo boyib boradi, ammo varvarizmlar tilning ma‘lum darajada buzilishiga ham olib keladi.

Tilshunoslikda paydo bo'lgan obsenizm atamasi lotincha "obscenus" so'zidan olingan bo'lib, beadab, uyatli; lisoniy nuqtai nazardan odobsiz ifoda, qasam ichish, tushuntirish degan ma'noni bildiradi<sup>4</sup>. Bunga ayrim yoshlarimiz tomonidan "ko'cha tili"da quloqqa chalinadigan quyidagi ifodalarni misol qilib keltirish mumkin (qo'pol so'zlar uchun oldindan uzr):

"Churka" – rus tilidagi "yog'och bo'lagi", "to'nka" ma'nosida. Qadimda slavyan halqlarida butlarni yog'ochdan yasashgan va ularni "Chur" nomli xudosi bo'lgan degan taxmin ham bor.

"Urod" – rus tilidan kirib kelgan ushbu so'z "ko'cha" tilida tez-tez uchrab turadigan so'zlardan bo'lib, aslida ko'rinishi xunuk, qo'pol, qo'rqinchli bo'lib tug'ilgan odamga nisbatan qo'llanadi. O'zbek tilida esa odamlar bir-birini haqorat qilish uchun ishlatiladigan so'zga aylangan.

"Tupoy" – rus tilidagi "tupoy" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "o'tmas, ahmoq" degan ma'noni anglatadi<sup>5</sup>.

"Churban" – rus tilidagi "churban" so'zidan kelib chiqqan, "to'nka, ahmoq, yog'och bo'lagi" degan ma'noda ishlatiladi.

"Xarip" – forscha-tojikcha "harif" so'zidagi kabi "dushman", "raqib" ma'nosida emas, balki ba'zilar tomonidan "ahmoq", "sodda" ma'nolarida qo'llanadi.

Bundan tashqari, nutqimizda shpingalet, chumo, so'tak, besoqol, turshak, shallaqi, ammaning buzog'i, kozyol, krisa, pilisos, palagi past, terpila, povutini bergan kabi haqorat hamda ironiyaga yo'g'rilgan so'z va iboralar ham talaygina.

Ilmiy texnika rivoji bilan birgalikda sohaga oid turli nomlarning kirib kelishi ham jadallashdi. Masalan, internet, kompyuter, televizor, smartfon, peyjer, elektromobil, shatl va hakoza so'zlar. Bu ro'yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Kirib kelayotgan ushbu so'zlarning o'zbek tilida variantlari mavjud bo'lsa yoki uning o'rniga o'zbekcha so'zlar asosida yangi so'zni qabul qilish mumkin. Ammo tadqiqotlar asosan chet tilidagi so'zlarning qo'llanilishini ko'rsatmoqda. Albatta, barcha yangi so'zlarning muqobil variantini o'ylab topish bu muammoning yechimi emas. O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarida "So'qqabosh bevagina" nomli kichkina hikoyacha mavjud. Hikoyada ayolning o'zi va farzandlari haqidagi tavsifi qahramon tilidan b'yon qilindi. O'zbek bo'lishiga qaramay, ayolning nutqi, xatti-harakati va ishlatayotgan so'zlari orqali uning ma'naviy qashshoqligi ochib beriladi: Mumkinmi? God moning! Salom! Ruxsatingiz bilan o'zimni predstavit etsam... Jonetta Kabulovna Xaltayeva! Men k sojaleniyyu sizning sochineniyelaringizni o'qigan emasman. Rostini aytsam, kitob o'qishga vaqt yo'q. Bilasiz, vremya – dengi. Xotya eshitganman. V osnovnom mamashkalar haqida yozarkansiz. (O'tkir Hoshimov)

Har qanday voqelik yoki predmetga munosabat bildirilganda, avvalo, uning tozaligi, haqiqiyli va boshqa unsurlardan holi ekanligi muhim me'yoriy jihat sanaladi. Tildagi "soflik" tushunchasi baholash me'yorining cho'qqisidir. "Shunga ko'ra nutq sofligini nutqning adabiy til me'yorlariga va jamiyatdagi axloq qoidalariga yot bo'lgan unsurlardan holiligi bilan belgilanuvchi kommunikativ sifat tarzida ta'riflash mumkin. Aytish joizki, kishi nutqining sofligi uning ma'naviy-ma'rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko'rsatkichlardan biridir"<sup>6</sup>.

Mening ham to'rtta bolam bor... Nima? Unaqaga o'xshamaydi, deysizmi? Rahmat, komplement uchun! Hamma shunaqa deydi. Men mamanga o'xshayman. Mamam oltmish

<sup>4</sup> Обсценизм // [www.dic.academic.ru](http://www.dic.academic.ru) (дата обращения: 20.08.2020)

<sup>5</sup> [k.com/story.php?story\\_fbid=389586888438398https://m.facebook.com/348989055831515](https://k.com/story.php?story_fbid=389586888438398https://m.facebook.com/348989055831515).

<sup>6</sup> Махмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистан Миллий кутубхонаси нашриёт, 2007.-Б 42

yoshdayam appetitniy edi. Kak kukolka! Har kuni sochini prichyoska qildirardi. Alchibaltka! Alchibaltni taniysizmi? Neujeli? Pervoklassniy master-ku! Mujskoy saloniga bormaganmisiz? V prochem, mayli...Olovingiz bormi?.. Yo'q-yo'q, men "more" chekaman... Senkyu. Zajigalkangizga gap yo'q. Tochno importniy! (O'tkir Hoshimov)

Insonning o'z ona tiliga bo'lgan mehru muhabbati va hurmati, o'z tilini qanchalik bilish-bilmasligi undagi madaniylik darajasiga o'lchovdir. Madaniyatning tom mohiyatini tushungan, ya'ni madaniylik qonun-qoidalari tanasiga singib ketgan har bir odam o'zi gapirayotgan tilning sofligi, uning kelajagi uchun hamma vaqt qayg'uradi. Bunday odam ruscha gapirayotganda rus tilining, o'zbekcha gapirayotganda o'zbek tilining sofligini saqlaydi. Buning aksi esa har ikkala tilni buzish, ikkala tilning yuziga oyoq bosishdan boshqa narsa emas!

Itak to'rtta bolam bor. Maratik – Nukusda. Internatda. Yoshi... minutochku, yoshi pomeyemu o'n to'rtta. Shu yil o'n to'rtga kiradi. Kopiya – papasi. Kr-r-rasavchik! Smugliyligi, ko'zining razrezi... Papasi bilan birinchi vstrechamiz Nukusda praktikaga borganimda bo'lgan. Zam ministr edi. Shunaqa abayatelniy, shunaqa intelligentniy. Ikki yilcha turdik. Sivilivizovanni ajrashdik. (O'tkir Hoshimov)

Matnda ayolning o'zbek tiliga rus tilini aralash tirib gapirayotgani yetmaganidek, boz ustiga rus tiliga xos jargon so'zlarni ham ishlatayotgani uning ma'naviy dunyosini ham yaqqol namoyon etmoqda.

Azim Xojiyev o'zbek tili lug'at tarkibini yaratishda shunday fikrni ilgari suradi: "... ayrim hodisalarning o'zbek tilida ma'lum elementlari bo'lsa yoki shu hodisaning bor-yo'qligi haqida bir fikrga kelinmagan bo'lsa, ularni atovchi terminlar lug'atga kiritiladi"<sup>7</sup>. Darhaqiqat, nutqning sofligini saqlash haqida gap ketganda uning adabiy til me'yorlariga muvofiq kelishi, ya'ni noadabiy qatlamlardan holi bo'lishi ko'zda tutiladi. Ba'zan yozuvchi asarda qahramon harakterini, xulqini o'quvchiga to'la yetkazib berish uchun uslubiy maqsadlarda til sofligini buzib qo'llashiga to'g'ri keladi. Masalan: To'g'risini aytdi. "Janochka, jonim, – dedi, – bu yog'i prokol bo'ladiganga o'xshaydi, xotinim jaloba yozibdi, dvoyejenstvo uchun ishdan haydashlari mumkin", dedi. Bilasiz, u paytda bunaqa masalalar strogiy edi. "Maratik uchun volnovasiya qilma, o'zim opekamga olaman, sen, Toshkentga ketaver, regulyarno borib turaman", dedi. "O-key!" dedim...

Nigorochnka – Samarqandda. Toyest, Nigorochnka emas, Nigorochnka! Nigorochnka – Qo'qonda...

Gde – to ikki yilcha oldin Samarqandga bordim. Nargizochkaning detdomiga kirdim. Detdom – tak sebe. Ammo direktor nishtyak ekan! Dilda!

Bo'y-basti ikki metr. "Bratan, dedim, – Nargizochkadan xabar olishim qiyin. Ishlarim navalom, dedim. "Xotirjam bo'ling. Nargizochkaga o'zim otalik qilaman", dedi. Uch kun mehmon bo'ldim. Kr-r-utoy erkak ekan! Molodes! (O'tkir Hoshimov)

Nutqning sofligiga putur yetkazadigan lisoniy unsurlarga noadabiy qatlamga xos dialektizm, varvarizm (chetdan kirgan so'zlarni noo'rin, haddan tashqari ko'p ishlatish) kabilar kiradi. Nutqning sofligini ta'minlash uchun uning keraksiz so'z va iboralardan holi bo'lishiga erishish lozim. Shuningdek, har bir uslubni o'z o'rnida qo'llash ham nutqning sofligini ta'minlaydi.

A.Qahorning "Nutq" deb nomlangan hajviy hikoyasidagi qahramon nutqi rasmiy notabiiy nutqqa misol bo'la oladi: "O'rtoq rafiqam! Ijizat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan

<sup>7</sup> Хожиев А. Лингвистик терминлар изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б.4.

davom ettirib, oilaviy burchimizni namunali qilayotganimizga bir yil to'lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga!"<sup>8</sup>

Ushbu o'rinda suhbatdoshlar ikki kishi – er va xotin. Xotin avval bu gaplarni hazil deb o'ylaydi, "qiyqirib chapak chaladi". Ammo notiq jiddiy qiyofada nutqini davom ettiradi. "Birinchidan", "ikkinchidan" deb oilada bir yil davomida ro'y bergan yutuq va kamchiliklarni sanab o'tadi va nutqini shunday yakunlaydi: "Shu bilan qisqacha so'zimni tamom qilib, oilamizning bundan keyin ham sharaflar bilan qoplanajagiga to'la ishonch bildirishga ijozat bering"<sup>9</sup>.

Notiq nutqini tugatgandan keyin yana asliga qaytadi. U o'zini keng eshituvchilar ommasiga mo'ljallangan "notiq" deb hisoblaydi, qanday vaziyatda nima gapirishni bilmaydi. Tilning amaliy qonuniyatlarini sayoz tushunadi. Natijada, nutqi notabiiy va kulgili chiqadi. Til zargari A.Qahhor ana shunday, o'z ta'biri bilan aytganda, "bisotidagi bir hovuch so'zni aylantirib kun ko'rib yurgan" lektor ustidan shu tariqa kuladi.

Og'zaki nutqda ba'zan uchrab turadigan so'kinish, haqorat, qarg'ish so'zlari jamiyatimizning axloq me'yorlariga zid hodisa sifatida nutqimiz sofligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. So'zlashuv nutqida ba'zan notiq o'z nutqini nazorat qilmasligi, bee'tiborligi oqibatida ayrim ortiqcha so'zlarni takrorlashga o'rganib qoladi. Xo'sh, demak, masalan, ya'ni so'zlari shular jumlasidandir. A.Ahmedov bir ma'ruzachi o'z nutqida o'rtoqlar so'zini 101 marta, ya'ni so'zini 73 marta, demak so'zini 60 marta takrorlaganini e'tirof etadi. Bir soatlik nutqda 234 ta "bekorchi" so'z ishlatilgan. Bunday so'zlar ham nutq madaniyatiga yot so'zlardir. Demak, nutq sohibi o'z nutqi ustida tinimsiz ishlashi, nutqini nazorat qilishi, tilga mas'uliyat bilan yondashishi lozimdir<sup>10</sup>.

Nargizochkaning papochkasi ham krutoy edi. Mejrayonniy neftebazada direktor bo'lib ishlardi. Yoshi ellikdan oshgan bo'lsa-da, kak ogurchik edi. Samarqandning paxani edi. Xotinidan qo'rqmasdan shik-k-karniy to'y qildi. Restoranda. Yomon yashamadik... Qamalib ketgani chatoq bo'ldi.

O'sha yerdan "ksiva" keldi – xabar. U kishiing aytishicha kak budto hammasiga men vinovata ekanman. E, to'kil dedim! Benzina distoplivo qo'shishni men o'rgatdimmi senga dedim! (O'tkir Hoshimov)

Kasalni tuzatishdan oldin unga to'g'ri tashxis qo'yish va tarqalish o'chog'ini, kelib chiqish manbasini aniqlash juda muhimdir. Nutqiy qashshoqlik ham ijtimoiy kasallik, uning tarqalish manbasini aniqlagandan keyingina davolash muolajalarini o'tkazish mumkin. shu o'rinda, haqli savol tug'iladi: tilni qayerda o'rganamiz va nutqni qanday boyitamiz? Javob sifatida asosan uchta muhitni ko'rsata olamiz: oila, mahalla, maktab.

Ammo Nigorochkadan anchadan beri xabar olganim yo'q. Ayttim-ku, "vremya – dengi". Qo'qonga hech yo'lim tushmayapti. Nigorochka otasida qolgan.

Predprinimatel edi. "Jahon bozorida" sakkizta "tochka"si bor edi. Xarakteri "milenkiy". Takoy poslushniy. Ikkita xotinidan bolasi bo'lmagani uchunmi, Nigorochkani jonidan ortiq ko'rardi. Har kuni ming xil o'yinchoq olib keladi.

Hammasiga o'zi aybdor! Nuqul zamechaniye beradi, notasiya o'qiydi. "Jannatxon, tahorat suvini yaxshi isitmabsiz. Huftondan keyin ko'chaga chiqmasinlar. Nomahramlarga ko'rinmasinlar. Begona erkak bilan gaplashmasinlar!" Tomi ketgan fanatik! E, sirpal, dedim! Obbergan bir xonali kvartirangga kak durochka uchinchi prochim, zajigalkangizga gap yo'q! Ko'p chekasizmi?

<sup>8</sup> <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulla-qahhor/abdulla-qahhor-nutq-feleton/>

<sup>9</sup> <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulla-qahhor/abdulla-qahhor-nutq-feleton/>

<sup>10</sup> Жўраева М. Ёш журналист ва нотик. – Тошкент, 2014.

Shavkatning papasiyam ko'p chekardi. Mana buni nastoyashiy mujik desa bo'ladi! Qomat bespodobniy! Qomat bespodobniy! Sochlar kurchaviy! Biznesni sindirib qo'yadi! Hamma ishi "doda"! To'rtta xotinni vot tak obespechit qilib qo'ygan. Razumeyetsya ZAGSimiz yo'q edi. V prochem bunisi nevajno. Ikkita "Mersi" bor edi. "Mers-600"! Beldersoydagi dachasini ayting! Saunasi, basseyni...

Net ravnix! Bir yilcha bo'ldi. Rossiyaga ketgancha daragi yo'q. O'sha yerdagi bratanlardan surishtirsam, biz ne v kurse delo, deydi... (O'tkir Hoshimov)

Oilada maishiy muloqotni, ko'chada ijtimoiy muloqotni, maktabda esa milliy adabiy muloqotni o'rganamiz. Oilaviy muloqotda, ayniqsa, keksalarning pandu nasihatlarini tinglash allaqachon urfdan qolib ketgan. Har kim o'zi bilan o'zi ovora, kimdir televizor ko'radi, kimdir o'z ishi bilan band (kompyuter va telefon o'yinlari, ijtimoiy tarmoqlardagi betartib muloqotlar). Faqat ovqatlanayotgandagi ikki-uch og'iz suhbat hisobga olinmasa, deyarli, uyda gaplashilmaydigan holatga kelib qoldik. Ko'cha-ko'ydagi ahvol bundan-da yomon. Ikki-uchta tilni, yana shuncha shevani qorishtirib aralash bir qorishma tilda (buni til deyish mumkin bo'lsa) muloqotga kirishamiz. Ko'cha tilida eng ommabop, yoshlarga qayta-qayta takrorlab o'rgatiladigan birliklar – bu, so'kislardir.

Shavkatchik o'zimda. Ikki yoshga chiqdi. Shustriy. Xodyachaya bomba. Mejdu nami bir gap aytaymi? Uyg'a notanish "dyadya" lar kelsa, halitdan meni revnovat qiladi, parazit! Sizni "fazendam"ga "xodyachiy bomba" yo'qligida chaqiraman, o-key! V obshem mayli, blije k delu! Menga sizning paderjkangiz kerak. Hokimiyatga zayavleniya bergan edim. "Men mat odinochkam. Qiynalib ketdim, shahar markazidan kvartira berishingizni so'rayman", deb. Borsam bir patsan o'tiribdi. O'n kundan keyin keling, dedi. Bugun borsam nima deydi deng? "To'rt xonali uyingiz bor ekan-ku!" deydi. Men uyni sening pulingga opmanmi? Xudoga shukur, boshimda erlarim toyest, erim bor, toyest bor edi. Bu uyni o'z pulimga sotib olganman. Ellik ming "baks"ga! Tag'in nima deydi deng, frayer? "Opajon", "monetniy dvor" dan chiqib keldingizmi, hamma yog'ingiz brilliant-ku!", deydi. Menga kompliment qilyapti, sopyak! Brilliantni sen podarka qipsanmi? Ayol boshim bilan biznes qilyapman. "Chelnok"ka boryapman. Stambulga, Dubayga, Yujniy Koreyaga... Osonmi? Har qadamda "ment!" "Dolya" cho'zmasang, hammasini obqo'yadi.

Kstati... Dubayda bo'lganmisiz? Obyazatelno boring! Texnika pochti darom! Tilla – navalom. Arablar temperametniy bo'lishadi. Nu, bunisi nevajno!

Koroche, hokimiyatdagi o'sha patsan "Sizga uy yo'q, hamma kvartiralar privatizasiya qilib bo'lingan, qayoqqa borsangiz, "katta ko'cha" dedi. Shuni bir fel'yeton qiling! Bespomoshniy mat-odinochkani unijat qilish qanaqa bo'lishini bir ko'rsatib qo'ying! Men ham qarzdor bo'lib qolmayman. Familiyasi... minutochku, familiyasi... yozib olganman.

Nima? Yozmaysiz? Toyest, kak yozmaysiz? Nima? Nima dedingiz? Yana bir qaytaring! "Men inkubator tuzatadigan usta emasman", dedingizmi? Kim inkubator? Nega ayol kishini haqorat qilasisiz? Nima haqqingiz bor. Naxal! Pisaka neschastniy! Ma, zajigalkang bosh-sh-shingdan qolsin! (O'tkir Hoshimov).

To'g'ri, badiiy asarda qahramonlar nutqining tavsifi, tasvirlanayotgan voqelikka mos ravishda qahramon dunyoqarashi va ruhiyatini yaratishda varvarizmlardan o'rinli foydalanish ekspressivlikni yuzaga keltiradi, lekin yuqoridagi holatda tilning barcha sathlari buzilishga uchragan. Yozuvchi bu o'rinda qahramon dunyoqarashini to'liq yoritishda uning "ko'cha tili"ga asoslangan nutqini bosh omil sifatida tanlaydi.

Ko'chada o'zbek millatiga mansub kishilarning o'zaro muloqotini tinglab, ular qo'llayotgan so'zlarning qanchalik ozligini, boshqacharoq qilib aytganda, nutqining naqadar qashshoqligini ko'rib beixtiyor achinib ketasan kishi. Tilning muayyan tizim qoidalariga bo'ysuntirilganligi so'zlovchidan me'yoriy lug'aviy birliklarni bilish va to'g'ri qo'llashni talab qiladi. O'sha birlik xotiraga kelmasa, olmosh (o'sha, haligi, anaqa, kim, nima) yoki vulgar so'zlar (adabiy tilga yot so'kish yoki qo'pol va dag'al so'zlar) qo'llaniladi. Bunday holat asosan shahar shevalarida keng tarqalgan. Afsuski, bu "kasallik" keyingi vaqtlarda ommalashib bormoqda. Oddiy xalqning tilga munosabati, aniqrog'i, tildan foydalanish ko'nikmasi va lisoniy didi kundan-kunga pasayib borayotganligi ayni haqiqatdir.

Jamiyatimizning yuqori qatlamidagi holatni olib ko'raylik. Ularning orasida ahvol qanday? Hujjatchilik bilan shug'ullanadigan milliy kadrlarimizdan ham ko'pincha e'tirozli fikrlarni eshitib qolamiz: "O'zbek tilida fikrni aniq ifodalash qiyin", "O'zbek tilida ma'lumotlarni to'g'ri yetkazib bo'lmaydi", "O'zbekcha hujjatlar tushunarsiz bo'lib qoladi".

Ko'rinadiki, yuqoridagi fikrlar tilimizning qanchalik qashshoqlashib borayotganligidan dalolatdir. Ushbu masalaga boshqacha yondashish zarur. Chiroyli kiyinish uchun javonimizda liboslarning yo'qligi bozorda ham kiyim topilmaydi, degan xulosaga olib kelmaydi-ku. Nega endi kimlarningdir nutqi qashshoqligi uchun til aybdor bo'lishi kerak?! Afsuski, ko'pchilik millatdoshlarimiz bu boylikdan bebahradirlar.

Bugungi kunda maktab ta'limida rasmiy tilni o'rganish jarayoni og'riqli nuqtamiz. Ona tiliga ajratilgan qanchadan-qancha soatlarni hech kimga va deyarli hech qayerda kerak bo'lmaydigan grammatik qoidalarni o'qitish va yodlatishga sarflab ko'kka sovuryapmiz. Lekin maktab o'quvchisi (oliy ta'limdagi talaba ham) ona tili ta'limidagi grammatik qoidalarni birma-bir sanab bera oladimi? Qarindoshlik atamalarini-chi? Hech bo'lmaganda, O'zbekistonda o'sadigan o'simlik va o'lkamizda yashaydigan yovvoyi hayvonlarning nomlarini bilisharmikan? Respublikamiz hududlari orasidagi muloqot xulqidagi farqlarni-chi? Birorta darslikda o'zbekona muloqot etiketlari xususida so'z yuritilganmi? Bularni qayerdan o'rganish mumkin? Axir tildan amaliy jihatdan foydalanish ko'nikmasini maktabda o'rganmasak va o'rgatmasak, nutq bilan birgalikda til ham qashshoqlashib boraveradi.

Tibbiyot ilmida shunday qoida bor: qaysi organdan foydalanilmasa, shu organ ish faoliyatini susaytirib boradi. Til ham jonli organizm, undagi birliklarning iste'moliga tez-tez murojaat qilinmasa, ularning ma'nosi xiralashib, yo'qolib boraveradi. Agar maktab darsliklarida kamalak ranglari va boshqa ranglar ko'rsatilib, ostiga so'zlar bilan izoh berilsa, xalqimizning hatto mashina ranglarini tushuntirishda xorij tillariga murojaat qilishga ehtiyoj qolmas edi. Qarindoshlik atamaları o'rta maktablarda o'rgatilsa, "akaning o'g'li ham, singilning o'g'li ham amakiga – menga jiyani bo'lishi"ni isbotlash uchun notariusga (Qoraqalpog'iston hududida) izohli lug'at ko'tarib borishga hojat bo'lmasdi yoki inglizcha o'rganayotganda ayrim qarindoshlik atamalarini topolmay har kim o'z shevasidagi shaklini aytib o'tirmasdi; Orolbo'yi hududida yashovchi ijodkorning yozgan she'rlaridagi qushlar va hayvonlarning nomlarini anglash uchun lug'atlarga murojaat qilib o'tirmasdik; hududlardagi muloqot xulqidagi farqliliklar maktabda o'rgatilganida edi, qoraqalpog'istonlik insonning muomalasidan andijonlik hamyurtimiz xafa bo'lmasdi yoki Toshkentga borgan do'stimiz "biznikiga ham o'ting" deyishganida "kutilmagan mehmon" bo'lib mezbenni bezovta qilmasdi; xorazmlik shogird "domla falonchiyev keldilarmi" deyishning o'rniga "falonchiyev keldimi" deya etiket qoidalarini buzib, domlaning oldida hijolat bo'lib o'tirmasdi.

Xullas, bularning hammasi tilni amaliy qo'llash bo'yicha muayyan ko'rsatmalar bo'lishi kerakligini taqozo etadi.

Yuqoridagi muammolar maktabda ona tili fanini o'qitishda faqat grammatik qoidalar bilangina cheklanganlik natijasidir. Biz grammatika qoidalari bilan kifoyalanishimiz kerak emas. Shu bois grammatikani ona tili fanidan ajratib, yuqori sinflarda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Har qanday til parvarishga, e'tiborga, nazoratga muhtoj. Aks holda, "gulzorni begona o'tlar bosib ketishi" tabiiy hol. Til har qanday davrda davlat tomonidan huquqiy muhofazaga, jamoatchilik tomonidan qat'iy nazoratga olinsagina ravnaq topadi. Olimlar va yozuvchilar tomonidan qayta ishlansa va jamoatchilikka tavsiyalar berilsa, yana-da sayqallashib, go'zallashib boradi. O'zbek adabiy tili taraqqiyoti XX asrning 30-40-yillarida siyosiy tuzum sababli oqsoqlanib qoldi. Millatning rivojlanishi uchun erkinlik zarurdek, tilni taraqqiy etishi uchun ham mustaqillik zarur.

Ushbu davrda tilimizda sun'iy o'zlashtirish siyosati avj olib ketdi. Aslida tilshunoslik tajribasida dunyodagi deyarli barcha tillar o'zga tildan so'z o'zlashtirganda (agar o'zlashtirish lozim bo'lsa) qabul qilingan lug'aviy birlikni o'zining til qonuniyatlariga moslab oladi. Muhit taqozosi bilan o'zbek tili ham bu qonuniyatlar asosida o'zini boyitgan: chorizm (sarizm), cherkov (syerkov) kabi. Hozir esa o'zga til unsurini hech qanday o'zgarishsiz qabul qilamiz.

Yurtimiz bo'ylab og'zaki muloqot qilishga mos tabiiy til ishlab chiqilmagan. Adabiy til asosan yozma nutqqa moslashgan, tilning og'zaki shaklida sun'iylik yaqqol seziladi, chunki adabiy tilimizdagi lug'aviy birliklar va jumla qoliplari tabiiy ravishda emas, asosan, (rus tili orqali) tarjima-kalkalar asosida sun'iy ravishda yasalgan. Hujjatlar tili va uslubi ham o'zga til qoliplari negizida shakllantirilganligi bois o'zbek tili o'z tabiatidan uzoqlashgan.

"Tilimizni o'z o'zaniga qaytaraylik, aks holda undan ayrilib qolamiz. Til millatning oxirgi kiyimi, undan ham ajralsak, yalang'och qolamiz..."<sup>11</sup> degan fikrda nechog'lik jon borligini faqat o'zbek tilini hurmat qilgan insongina tushunadi, xolos. Zero, tilimizni asrab-avaylash barcha millatdoshlarimizning muqaddas burchi ekanligini unutmashimiz lozim

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. S Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz// O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining ko'shma majlisidagi nutq. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi// <http://uza.uz/posts/33304>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi VMQ-984-con Qarori. – Toshkent, 2019 yil 12 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4797-son Farmoni. – Toshkent, 2016 yil 13 may.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni. – Toshkent, 2020 yil 20 oktyabr,

<sup>11</sup> <https://dunyo.news/uz>.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni. – Toshkent, 2019 yil 21 oktyabr.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5850-сон Фармони. – Тошкент, 2019 йил 21 октябрь.
8. 1921 йил Тил ва имло қурилтойи чиқарғон қарорлари. – Тошкент, 1922. – 39 б.
9. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлари. 4 жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – 127 б.
10. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек адабий тилининг стилистик нормалари // Ўзбек нутқ маданиятига оид масалалар. – Тошкент, 1973. – 53 б.
11. Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент, 1981. – 59 б.
12. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн / Ваҳоб Раҳмонов таржимаси. – Тошкент: Тафаккур, 2009.
13. Аҳмад Югнакий. Ҳибат ул ҳақойиқ. – Тошкент, 1971. – 78 б.
14. Аширбоев С. Азимов И. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси фанидан ўқув қўлланма. – Тошкент, 2012. – 95 б.
15. Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. – Тошкент, 1940 – 24 с.
16. Бегматов Э. Нутқ маданияти проблемасининг пайдо бўлиши ва асосланиши // Нутқ маданиятига оид масалалар. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 166-167.
17. Бегматов Э. Адабий норма назарияси – Тошкент: Наврўз. 1997. – 44 б.
18. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси: адабий норманинг шаклланиш ва яшаш қонуниятлари. III қисм. – Тошкент, 1999. – 140 б.
19. Бернштейн С.И. Язык радио. – Москва: Наука, 1977. – 46 с.
20. Бодуэн де Куртенэ И.А. О задачах языкознания // Избранные труды по общему языкознанию. – Москва: АН СССР, 1963. – С. 203-222.
21. Брусенская Л.А., Куликова Э.Г. Экологическая лингвистика. Монография. – Москва: Флинта. – Наука, 2018. – 184 с.
22. Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: O'zbekiston, 2018. – 216 б.
23. Ильминский Н.И. Вступительное чтение в курс турецко-татарского языка. – Казань, 1862. – 27 с.
24. Йўлдашев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – 123 б.
25. Каримов С. Тил таълими ва меъёр. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Абдулла Кодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – 267 б.
26. Кожин А.Н., Крылова О.А., Одинцов В.В. Функциональные типы русской речи. – Москва: Высшая школа, 1982. – 223 с.
27. Колесов В.В. Язык города. – Москва: Высшая школа, 1991. – 192 с.
28. Лурия А.Р. Речь и интеллект в развитии ребёнка. – Москва, 1927. – 220 с.
29. Львова С. Язык в речевом общении. – Москва: Просвещение, 1991. – 128 с.
30. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. – 183 с.



31. Маматов А., Болтабоева Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи. – Тошкент, 2018. – 95 б.
32. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк (туркий сўзлар девони). 3 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2016. – 388 б.
33. Маҳмудов Н. Зиддият ва маъно тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти, 2014. – № 3. – Б. 16-24.
34. Маҳмудов Н. Нутқнинг жўялилиги // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. – № 3. – Б. 13-17.
35. Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986, – № 6. – Б. 28-31.
36. Маҳмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – 39 б.
37. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – № 5. – Б. 33-35.
38. Маҳмудов Н. Ўзимиз ва сўзимиз. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1997.
39. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистан Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 188 б.